Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti N.B.Ulug'murodovaning "Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish" dan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, bozor munosabatlarining asosiy tamoyillari amalda bo'lishi davlat tomonidan, mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlash va umummilliy manfaatlami himoya qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish maqsadida amalga oshiriladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo'yicha davlat organlarining faoliyati deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshiriladi. Lekin bu faoliyatning ko'lami, shakllari va usullari, aniq maqsad va vazifalari har bir mamlakatning hududiy jihatdan katta-kichikligidan, jahon xo'jaligida tutgan o'rni, tashqi va ichki siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bugungi bozor islohotlari munosabatlarining yangi strategiyasi asosiy yo'nalishlaridan biri — tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu munosabatlar bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan jihatlarni, shu jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import munosabatlarda ilg'or siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishni o'z ichiga oladi.

Mazkur fan dasturi iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalar uchun zarur bo`lgan dolzarb mavzularni o`z ichiga oladi.

Taqrizchi:
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri,
i.f.n., dotsent Sh.Sultonov

KADRLAR BO'LIMI

IMZONI TASDIQLAYMAN
SamISI
KADRLAR BO'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
INSON RESURLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60420200-TIFDB1706
2024 yil "10" 06

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__"_____

"TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA DAVLAT BOSHQARUVI"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	420000 – Huquq
Ta'lim yo'nalishi:	60420200 – Davlat va jamiyat boshqaruvi

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
TIFDB1706	2027-2028	VII	6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		6

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish	80	100	180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – Bozor iqtisodiyoti sharoitida, bozor munosabatlarining asosiy tamoyillari amalda bo'lishi davlat tomonidan, mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta’minlash va umummilliy manfaatlami himoya qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish maqsadida amalga oshiriladi. TIFni tartibga solish bo‘yicha davlat organlarining faoliyati deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshiriladi. Lekin bu faoliyatning ko'lami, shakllari va usullari, aniq maqsad va vazifalari har bir mamlakatning hududiy jihatdan katta-kichikligidan, jahon xo'jaligida tutgan o‘rni, tashqi va ichki siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Mazkur o‘quv qo'llanma bojxona ishi yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalar uchun o‘quv qo'llanmasi sifatida tavsiya etiladi. **Fanning vazifasi** – talabalarda tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish; valyuta siyosati orqali amalga oshirish; soliq siyosati orqali tartibga solish; tarif va notarif yo‘l-yo‘riqlar orqali tartibga solish; O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash; tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklovlar o‘matish hamda tovarlaming ayrim turlarini eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o‘rnatish; texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash; tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferentsiya va imtiyozlar berish bo`yicha ko`nikmalarni shakllantirish.

Fan mazmuni
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

	Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)
M1	**Tashqi iqtisodiy faoliyat: mohiyati, ahamiyati va maqsadlari.** Tashqi iqtisodiy aloqalar — aniq bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xalqaro mehnat taqsimotiga, fan va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga hamda boshqa omillarga asoslangan ishlab chiqarish, savdo, siyosiy va boshqa xil munosabatlaridir. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro‘yobga chiqarish jarayoni.
M2	**Xalqaro savdo - tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli.** Tashqi savdo faoliyati tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborot, intellektual faoliyat natijalari, shu jumladan, ularga doir Mutlaq huquqlar (intellektual mulk bilan xalqaro ayirboshlash sohasida) tadbirkorlik faoliyatining alohida turidir.
M3	**Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish va tartibga solish davlat siyosati.** Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish vositalaríni takomillashtirish. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda iqtisodiy vositalardan foydalanish bo‘yicha jahon tajribasi.Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning optimal tizimini shakllantirishda bojxona organlarining ahamiyati.
M4	**Tashqi iqtisodiy faoliyatning optimal tizimini shakllantirish.** Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalaríni takomillashtirish. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda iqtisodiy vositalardan foydalanish bo‘yicha jahon tajribasi.Tashqi iqtisodiy faoliyatni optimal tizimini shakllantirishda bojxona organlarining ahamiyati.o‘zbekiston uchun tashqi savdoni isloh qilish va eksportni rag‘batlantirish — erkin ayirboshlanadigan valutada daromadlar o‘sishiga olib keladi.
M5	**Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvi vositalari.** Xalqaro savdoda davlatning roli.Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvi vositalari va ularning tasniflanishi. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish. Dunyo xo‘jaligining XX asr oxirlari faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - davlatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy m unosabatlarning yanada rivojlanishi va takomillashuvidir.
M6	**Davlatni savdo-tarif siyosati nazariyasi.** Tashqi savdoni tarif orqali boshqarishning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri. Boj tarifi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning asosiy vositasi. Tarifning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri. Tarif qoilanishining ijobiy va salbiy tomonlari. Xalqaro savdoda davlatning asosiy vazifasi – eksportchilarni o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarini iloji boricha chetga olib chiqishlari uchun qo‘llab-quwatlash, ular tovarlarini xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ichki bozorda chet el tovarlari raqobatbardoshlik darajasini pasaytirish maqsadida importni chegaralashdir.

M7	**Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvida notarif usullar.** Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimida notarif usullari. Notarif usullarining turlari. Miqdoriy notarif usullari va ularni qo'llash tartibi. Moliyaviy usullar. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tom onidan tartibga solishda, jahon xo'jaligi amaliyotida, tarif usullari bilan bir qatorda, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi tarif usullarini qo'llashda samara bermaydigan masalalarni yechishda notarif usullaridan foydalaniladi.
M8	**Xalqaro savdo siyosatining takomillashuvi va davlat iqtisodiy xavfsizligi muammolari.** Erkin savdo hududlari va ularning xalqaro savdo siyosatini takoniillashtirishdagi ahamiyati. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va iqtisodiy havfsizlik muammolari. Mamlakatlar o`rtasida xalqaro savdo munosabatlarining rivojlanishi, ular tom onidan turli integratsiya tuzilmalari tashkil qilinishiga olib keldi.
M9	**Mintaqalararo savdo-iqtisodiy munosabatlar va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy munosabatlarining samaradorligi.** Savdo-iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati. Yevropa Ittifoqi doirasida integratsiya jarayonlari tajribasi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi. Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlarining mavjudligini yodda tutamiz va ularga asoslanamiz.
M10	**JST/GATT — Xalqaro savdo tashkiloti va xalqaro savdoni tartibga solish tamoyillar.** Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv va Jahon savdo tashkiloti. Jahon savdo tashkiloti — ko'p tomonlama savdo tizimi. O'zbekiston Respublikasida JST/GATTga a'zo bo'lish yo'lida olib borilayotgan chora-tadbirlar. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) - xalqaro savdoning boj-tarif jihatlarini tartibga soluvchi eng nufuzli tuzilmadir.
M11	**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari.** A'zo davlatlar orasida tarif bilan himoyalangan faoliyatlarida ekstensiv o'xshashlik va bir-biriga bog'liqlik; A'zo davlatlar o'rtasida himoyalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish harajatlaridagi keng farqlanish; Shu o'rinda savdoni qaytarish effektlarini minimallashtirish uchun quyidagilar mavjud bo'lishi kerak: 1.Ittifoq a'zolari soni ko'p bo'lishi va shu tariqa savdosi qaytarilishi mumkin bo'lgan mamlakatlar sonining kam bo'lishi; 2.Dastlab ishlab chiqarishga nisbatan savdoning past darajada boiishi; 3.Kelajakda bojxona ittfoqi doirasida hamkor bo'luvchi mamlakatlar urtasida savdoning ulushi yuqori bo'lishi.
M12	**Iqtisodiyotni tartibga solishning pul-kredit siyosati vositalari.** Umumiy bozor ishlab chiqarish omillarining erkin xarajatini o'z ichiga oladi. Bunday holatda asosiy foyda omillar o'zlarining eng yuqori daromad keltiradigan va yuksak iqtisodiy farovonlikni ishlab chiqaradigan hududlariga erkin oqib o'tishi hususiyatiga egadir.
M13	**Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.** Integratsiya jarayonini tahlil qilishda, barcha xususiyatlarni umumlashtirilgan holda, Yevropa integratsiyasi awal yuzaki integratsiyani amalga oshinsh orqali keyinchalik ushbu jarayonni chuqurlashtirishga erishdi, deyish mumkin.
M14	**Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifalari.** Dastlabki bosqichda o'zaro iqtisodiy munosabat ma'lum mahsulot bozoriga asoslangan tarzda, ulami ochiq raqobat sharoitida ishlashini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.
M15	**Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash va inqirozga qarshi siyosat.** Yevropa davlatlarining iqtisodiy o'sishida hukumatlararo darajada ro'y berayotgan integratsion jarayonlar juda jiddiy ta 'sir kuchiga ega. Xo'jalik aloqalarining tobora rivojlanib, o'sib borishi va iqtisodiy subyektlarning ko'proq o'zaro bir-biriga bog'liqligi iqtisodiy hayotning asosiy sohalarida yagona siyosatni olib borish zaruriyatini tug'dirdi.
M16	**Davlatning tarkibiy-investitsion siyosati.** Iqtisodiy integratsiya hodisa yoki jarayonning holatini belgilovchi, ilgari alohida bo'lgan iqtisodiyotlaming yuksakroq tadbirlar borasidagi kombinatsiyani o 'z ichiga oladi. Unifikatsiya natijasidagi daraja va qo'lamdan kelib chiqqan holda integratsiya turlarini belgilash mumkin boiadi.
M17	**Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo`llab-quvvatlash.** Yevropada yuz bergan va hozirda ham o'zining yangi qirralari bilan davom etayotgan integratsiya jarayonini taxlil qilish orqali quyidagi xulosalarni ta'kidlash maqsadga muvofiq.
M18	**Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.** Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo'lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo'liga ma'lum to'siqlar qo'yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi.
M19	**Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari.** Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullari bo'lib tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvchilarning iqtisodiy manfaatlari, ularning daromadini taqsimlashga, bitim shartlarini bajarishga ta'sir etuvchi, bojxona tariflari va bojlari, turli soliqlar, valyutadan tushgan puldan ajratmalar me'yori.
M20	**O`zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va**

	takomillashtirish yo`nalishlari. Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari haqida fikr bildirilganda, asosan muayyan mamlakatning tovar eksport-import operatsiyalari, kapitallar, kreditlar, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi va ular bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar nazarda tutiladi.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: **Amaliy mashg'ulotlar (A) uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
A1	Tashqi iqtisodiy faoliyat: mohiyati, ahamiyati va maqsadlari.
A2	Xalqaro savdo - tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli.
A3	Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish va tartibga solish davlat siyosati.
A4	Tashqi iqtisodiy faoliyatning optimal tizimini shakllantirish.
A5	Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvi vositalari.
A6	Davlatni savdo-tarif siyosati nazariyasi.
A7	Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvida notarif usullar.
A8	Xalqaro savdo siyosatining takomillashuvi va davlat iqtisodiy xavfsizligi muammolari.
A9	Mintaqalararo savdo-iqtisodiy munosabatlar va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy munosabatlarining samaradorligi.
A10	JST/GATT — Xalqaro savdo tashkiloti va xalqaro savdoni tartibga solish tamoyillar.
A11	Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari.
A12	Iqtisodiyotni tartibga solishning pul-kredit siyosati vositalari.
A13	Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.
A14	Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifalari.
A15	Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash va inqirozga qarshi siyosat.
A16	Davlatning tarkibiy-investitsion siyosati.
A17	Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash.
A18	Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.
A19	Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari.
A20	O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va takomillashtirish yo`nalishlari.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish"fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchasi, mohiyati va tasnifi.
2.	Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayonidir.
3.	Tashqi savdo — tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shaklidir.
4.	Xalqaro savdo — tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli.
5.	Xalqaro savdo va jahon tovar bozorlari.
6.	Xalqaro savdoda texnologik ayirboshlash.
7.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish.
8.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish.
9.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish sharoitida boshqarish.
10.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalarini takomillashtirish.
11.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda iqtisodiy vositalardan foydalanish bo`yicha jahon tajribasi.
12.	Tashqi iqtisodiy faoliyatning optimal tizimini shakllantirishda bojxona organlarining ahamiyati.
13.	Boj tarifi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning asosiy vositasi.
14.	Tarifning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.
15.	Tarif qoilanishining ijobiy va salbiy tomonlari.
16.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimida notarif usullari.
17.	Notarif usullarining turlari.
18.	Miqdoriy notarif usullari va ularni qo'llash tartibi.
19.	Moliyaviy usullar.
20.	Erkin savdo hududlari va ularning xalqaro savdo siyosatini takomillashtirishdagi ahamiyati.
21.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va iqtisodiy havfsizlik muammolari.
22.	Savdo-iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati.
23.	Yevropa Ittifoqi (Yel) doirasida integratsiya jarayonlari tajribasi.
24.	O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi.
25.	Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv va Jahon savdo tashkiloti.
26.	Jahon savdo tashkiloti — ko'p tomonlama savdo tizimi.
27.	O'zbekiston Respublikasida JST/GATTga a'zo bo'lish yo'lida olib borilayotgan chora-tadbirlar.

"Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu

fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablariga muvofiq talabalar, o'quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish; bugungi bozor islohotlari munosabatlarining yangi strategiyasi asosiy yo'nalishlaridan biri — tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan tartibga solinishi, ayniqsa, muhimdir.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda xodimlar bilan munosabatlarni boshqarishning zamonaviy kontseptsiyalaridan foydalanish, mehnat sohasida ijtimoiy sherikchilik mexanizmlaridan samarali foydalanish, korxona, tashkilot va firmalarning tub maqsadiga erishishini ta'minlovchi xodimlar bilan munosabatlarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning echimini topishda xodimlar bilan munosabatlarning o'rni va ahamiyatining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • makro va mikro darajada xodimlar bilan munosabatlarni boshqarishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, korxonalarda inson resurslarini boshqarish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish va amalda qo'llash, korxonalarda xodimlar bilan munosabatlarni boshqarish va nazorat qilish jarayonida ish faoliyatining sifati va miqdorini baholash, xodimlar bilan munosabatlarni boshqarishda innovatsiyalarni joriy etish, mehnat jamoalarini xodimlar bilan munosabatlarni boshqaruv faoliyati elementlari va ulardan boshqaruv jarayonida samarali foydalanish, xodimlar bilan munosabatlarni sifat jihatidan boshqarish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • korxona va tashkilotlarda xodimlar bilan munosabatlarni boshqarishda strategiya ishlab chiqish, xodimlarni ishga yollash, foydalanish va ishdan bo'shatishni shartnomaviy tartibga solishni bilishi va ulardan foydalana olish, korxonalarda kadrlarni ishga jalb etish va yollashdan tortib istiqbolli kadrlarni zahirasini shakllantirishga bo'lgan jarayonni boshqarish, xodimlar bilan munosabatlarni boshqarishning huquqiy asoslari va uni shartnomaviy tartibga solish, xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va lavozimlarga biriktirish, inson resurslarini baholashning zamonoviy usullarini hamda xodimlar bilan munosabatlarni boshqarish tamoyillarini amaliyotda qo'llash ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**
	• ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • aqliy hujum metodi; • insert texnikasi; • muammoli masala va vaziyatlar metodi; • klaster; • konseptual jadval; • venn diagrammasi; • baliq skeleti chizmasi; • nilufar guli chizmasi.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Aliyev A.A. "Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish". O`quv qo`llanma. O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent-2007. -136 b.
2. Abulqosimov H.P. "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish". O`quv qo`llanma. Toshkent "Noshirlik yog`dusi", 2018. -348 b.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.:"Adolat", 2024. – 488 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2020-y.

AXBOROT MANBALARI:

1. https://president.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. https://senat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti
3. https://gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal
4. https://www.imv.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
5. https://mehnat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti
6. https://gov.uz/en/miit – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti
7. https://www.lex.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining

qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.	
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "27" 08 dagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **N.B.Ulug`murodova** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti.
9.	**Taqrizchilar:** S.Alibekova – SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, i.f.n. Sultonov Sh. – SamISI "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **N.U.Arabov**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti N.B.Ulug'murodovaning "Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish"dan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Bozor munosabatlarining asosiy tamoyillari amalda bo'lishi davlat tomonidan, mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlash va umummilliy manfaatlami himoya qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish maqsadida amalga oshiriladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo'yicha davlat organlarining faoliyati deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshiriladi. Lekin bu faoliyatning ko'lami, shakllari va usullari, aniq maqsad va vazifalari har bir mamlakatning hududiy jihatdan katta-kichikligidan, jahon xo'jaligida tutgan o'rni, tashqi va ichki siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bugungi bozor islohotlari munosabatlarining yangi strategiyasi asosiy yo'nalishlaridan biri — tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu munosabatlar bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan jihatlarni, shu jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import munosabatlarda ilg'or siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishni o'z ichiga oladi.

Mazkur fan dasturi iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalar uchun zarur bo`lgan dolzarb mavzularni o`z ichiga oladi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi i.f.n., dotsenti **S.L.Alibekova**